



YOSHLAR VA ILM

Qayumova Marjona Ulug'bek qizi

Shahrisabz davlat pedogogika instituti pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1- kurs 1-23 - guruh talabasi

Annotatsiya: *Har qanday davlatning tarixiy yo'lidan ma'lumki, mamlakatning ravnaq topishi, jadal rivojlanishi, eng yaxshi natijalarni qayd etgan holda xalqning farovon hayot kechirishi, shak-shubhasiz, yoshlarning ta'lim-tarbiyasi va ularga berilayotgan e'tiborga bog'liqdir. Hozirda bizning respublikamiz O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida imzolagan birinchi hujjati ham 2016-yil 14- sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi Qonun edi. Bu Qonunning qabul qilinishidan maqsad ham aynan yoshlarning saviyasi bilim darajasini yaxshilash orqali mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishdir.*

Kalit so'zlar: *Taraqqiyot, mamlakat, rivojlanish, yoshlar, ta'lim- tarbiya.*

Kirish so'z (Introduction)

Sizlar mustaqillik farzandlarisiz. Ota- bobolaringiz ko'rgan to'siq va qiyinchiliklarni ko'rmay, ozod Vatanimizda erkin nafas olib voyaga yetyapsizlar. Yuksak maqsadlar yo'lida siz- yoshlar hal qiluvchi kuch bo'lishingiz kerak. Men sizlarning zimmamizga yuklangan ana shunday ulkan mas'uliyatni, tom ma'nodagi tarixiy vazifani sharaf bilan ado etishingizga qat'iy ishonaman.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yoshlar forumidagi nutqidan.

Kirish (Introduction)

O'zbekiston yoshlar mamlakati. Yurtimizning ertangi kuni, kelajagi va ravnaqi yoshlar qo'lida ekanligini yaxshi anglagan davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Miromonovich xalqning ertasi hisoblanmish yoshlar uchun kerakli shart-sharoitlar yaratish ishlarini olib bormoqda. Eng yangi o'quv dasturlari, yangi fan-texnika yangiliklari, chet el ta'lim tizimidagi yangiliklar ijtimoiy soha bo'lgan ta'lim sohasiga tez sur'atlar bilan olib kirilmoqda. Yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, ularning kelajagi uchun qilingan sarmoya eng yaxshi sarmoyador deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Mamlakatimizda yoshlarning ta'lim-tarbiyasi alohida e'tibor berilmoqda. O'g'il-qizlarimizning yuksak malakali yetuk kadrlar bo'lishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasidagi ishlar jadal olib borilmoqda. " Najot ilmdandir" , - degan hikmatli so'z bejiz aytilmagan. Negaki eng qiyin vaziyatlarda ham yordamchi bo'lib inson zotiga ilm yetib kelgan. Har doim, har qachon, bugun ham, erta ham, o'tmishda ham ilimli insonning elda aziz bo'lganligini ko'pchiligimiz yaxshi anglaymiz. Bugunning



talabi ham bilimli yoshlarni tarbiyalashdir. Shu maqsadda mamlakatimizda ham birinchi galda maktabgacha ta'lim muassasalari sonini ko'paytirishga e'tibor qaratildi. Maktabgacha ta'lim muassasalari zimmasiga yuklatilgan vazifa ham ulkandir. Chunki bola maktab ta'limida ilm olishga bog'cha yoshidanoq tarbiyalanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)

Men ushbu maqolamni yozishda institut kutubxonasidagi pedagogikaga oid kitoblardan foydalandim. Chunki bu kitoblarda o'quvchilarga qanday qilib samarali bilim berish usullari hamda ularga psixologik yondashuvlar yoritib berilgan. Foydalanilgan adabiyotlar R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, N.Voxidovalarning "Pedagogika nazariyasi va tarixi" (2010), B.X.Xodjayevning "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" (2017) Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" Toshkent " (O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti 2004), Ergash G'oziyev "Umumiy psixologiya" ("Universitet" nashriyoti 2002), "Yosh davrlari psixologiyasi" o'quv material (2024-y), S.X.Jalilova "Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya" (2020) kitoblaridan iborat.

Yoshlarning bilim olishga muhabbatini ularning ota-onasi yoshlik chog'idanoq uyg'otib borishlari kerak. Endigina maktabga qadam qo'ygan bola maktabga juda katta qiziqish bilan boradi. Bora-bora bu qiziqish osonlik bilan so'nishi ham mumkin. Chunki bola maktabga borib bilim olish miyaga zo'riqish berishini, uni charchatayotganligini sezib undan uzoqlasha boshlaydi. Maktabga endi qatnay boshlagan bolada yetakchi faoliyat avval o'yin faoliyati bo'lgan bo'lsa, ayni damdagi yetakchi faoliyat o'qishdir. Bolaning ko'ngli maktabdan sovigan paytda ota-onalargaham o'qituvchilarga ham ulkan vazifa yuklatiladi. Bunday vaziyatlarda ular bolalarga o'qish o'yindan farqli ekanligini, o'qisa nimalarga erisha olishini to'g'ri tushuntirib bera olsa, yana unda o'qishga nisbatan muhabbat uyg'onishi mumkin. Biz birinchi kurslar ikki hafta amaliyot davomida amaliyot o'tagan bo'lsak shu narsaga yana bir bora ishonchim komil bo'ldiki, bola agar boshlang'ich sinfdan yaxshi ta'lim olsa, u keyingi bosqichda hech qanday qiyinchilikka uchramas ekan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology)

"Yoshlar va ilm" mavzusida maqola yozishda kuzatish metodidan foydalandim. Men birinchi kurs birinchi bosqich talabasi sifatida o'z kursdoshlarimni kuzatdim. Biz boshlang'ich kurslar institut miqyosida kunduzgi ta'lim 230 dan ortiq talaba bo'lsak, o'rtacha hisobda har bir guruhda 30 dan ortiq talabani tashkil qiladi. Kuzatishim davomida shularga guvoh bo'ldimki, guruhdagi talabalarning 10 tasi juda ham izlanuvchan, yana 10 tasi faqat baho uchun o'qiyapti, qolgan 10 tasi esa maqsadsiz, nima uchun darsga kelayotganini ham bilishmaydi. Bu maqolani yozishdan maqsad ham samarali ta'lim usullarini izlash, hozirgi kunda ta'lim muammolari va yechimlari haqida izlanish natijalarini qayd etishdan iboratdir.

Menimcha, maktabda o'quvchilarni jamoaga bo'lgan holda ta'lim berish ham ularni bilim olishga qiziqitira oladi. Chunki o'quvchilarni raqobat orqali ham o'qishini yaxshilashga erishish mumkin. Maktablarda o'quvchilar jamoasini shakllantirish to'rt

bosqichda amalga oshiriladi. Bunda jamoadagi faol o'quvchilar o'qituvchining yaqin yordamchisi sifatida ish olib boradi.

Maktabda tahsil olayotgan bolada, avvalo, kun tartibi to'g'ri taqsimlangan bo'lishi kerak. Bu orqali u o'z ishlarini bajarishga vaqtida ulguradi va bo'sh vaqtdan ham unumli foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi. Kun tartibi bor bo'lgan bolada maqsad ham aniq bo'ladi. Jadid namoyondasi hisoblanmish Abdulla Avloniy bobomiz: "Yoshlarning ertaga qanday odam bo'lib yetishishlari ularning vaqtni qanday taqsimlay olishiga bog'liqdir" - , deb naqadar dono fikr aytib o'tgan edi.



@mutolaaxona

Mutolaa ilovasi statistikasiga ko'ra "ENG KITOBXON HUDUD"



*2024-yil 29-mart, soat 12:15 holatidagi ma'lumotlarga asoslangan.

Quyidagi jadval Mutolaa ilovasidan olingan ko'rsatgichlar (viloyat va tumanlar kesimida)

Har qanday yomon ishlar , turli xil ko'ngilsizliklar, noxushliklar ham bo'sh vaqtdan noto'g'ri foydalanish oqibatida kelib chiqmoqda. Fan- texnika asrida yashayotgan ekanmiz, internet hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Deyarli ko'pchiligimiz erta tongda turgandanoq birinchi bo'lib yuzimizni yurmaymiz, balki telefonimizga qaraymiz. Kaftdekkina keladigan birgina narsaga butun dunyo joylashtirilgan. Bu - mo'jiza, lekin shu mo'jizadan ham maqsadli foydalanilish bor, ya'ni o'zi uchun kerakli bo'lgan ishlar uchun. Masalan, biror narsa yoki kimdir haqida ma'lumot kerak bo'lib qolgan hollarda mobil internetdan foydalanish. Shuni tan olib aytishimiz kerakki, yoshlar bundan to'g'ri foydalana olmayapti. Buning sababi ularning ma'naviyatida bo'shliq bor. Bo'shliqni to'ldira oladigan yagona narsa - bu



zabonsiz muallimlar, ya'ni kitoblari. Yurtimizda kitobxonlikni targ'ib qilish uchun qator ko'rik-tanlovlar o'tkazilmoqda. Ushbu tanlovlarning eng nufuzlisi "Yosh kitobxon" tanlovi. Bu tanlovni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad kitob o'qishni targ'ib qilish orqali yoshlar ma'naviyatini o'stirish. Shu bo'shliq tufayli yoshlarimiz o'zlari bilib bilmagan holda yomon narsalar targ'ibotchisiga aylanib qolmoqda. Yana internet orqali, nafaqat internet, balki televizor orqali ommaviy madaniyat shiddat bilan kirib kelmoqda. Ommaviy madaniyat G'arb dunyosida o'tgan asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi. Uni G'arbda "popular" yoki "pop-kultura" deb atashadi. Ommaviy madaniyat "madaniyat" deb atalsa-da, aslida ommaviy madaniyat chinakam madaniyatning kushandasi. Ommaviy madaniyatning ta'sir doirasi juda kengdir. Ommaviy madaniyat globallashuv ta'sirida tezlik bilan ildiz otyapti. U haqida hindlarning otasi faylasuf Mahatma Gandi shunday deydi: "Men shamoldan qo'rqib derazani yopib qo'ya olmayman, lekin katta qilib ochib ham qo'ya olmayman. Chunki menga havo kerak. Men derazamning kerakli qismini ochib qo'yaman va shunda men o'zimga keraklisini olib qolaman". Ommaviy madaniyatning turli ko'rinishlari mamlakatimizda ildiz o'tyapti. Xususan, milliyligimizga to'g'ri kelmaydigan kiyimlarni kiyish urf bo'ldi. Chetdan kirib kelgan so'zlarni aytish bilan yonimizdagi suhbatdoshimizdan o'zimizning ustun ekanligimizni ko'rsatmoqchi bo'lamiz. Qani, o'ylab ko'raylikchi, o'sha chet elliklarning birontasi bizning o'zbekona so'zlardan foydalanar ekanmi?

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Biz ommaviy madaniyat bo'yicha anonim so'rovnoma o'tkazdik. So'rovnomamiz institutimiz doirasida bo'lib o'tdi. So'rovnomadan so'ng shunday xulosaga keldikki, yoshlarimizning ommaviy madaniyatga qiziqishlari juda yuqori ekanligi achinarli holat. Undagi natijalar quyidagicha:

Ommaviy madaniyat bo'yicha o'tkazilgan anonim so'rovnoma jadvali.

Ommaviy madaniyatni yoqlovchilar	50%
Ommaviy madaniyatni mutlaqo yoqlamaganlar	30%
Betarafklar	20%



Ommaviy madaniyat tasviri tushirilgan rasm

Ommaviy madaniyat, ilmsizlik oqibati haqida maktablarda, mahallalarda hamda oliy o'quv yurtlarida seminar - treninglar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Yana shu o'rinda bir fikr aytib o'tsak, telefonda foydalanish ham ota-onalar tomonidan qat'iy nazorat qilinishi kerak. To'g'ri, telefon ham kerakli narsa, u uzog'imizni yaqin qilib, ishimizni yengillashtiradi, lekin undan foydalanishning ham o'z chegara me'yoridir.

Kuniga yigirma bet kitob o'qish odamning fikrlashini o'stirib, ma'naviyatini boyitar ekan, lekin biz kitob o'qishga qunt qila olmaymiz, buni odatga aylantirishimiz qiyin kechyapti.

Biz erkin, huquqiy, demokratik davlatda yashayapmiz. Yurtimizda taraqqiyot sur'atlari ancha tezlashgan. Ta'lim sohasidagi o'zgarishlar sezilarli, lekin bu yangiliklarning qishloqlarga yetib borishi qiyin bo'lyapti. Qilinayotgan ishlar qog'ozlarda bor, qisman bo'lsa-da bajarilyapti, lekin natijasi samarasiz bo'lmoqda. Ming afsuski, ko'pchilik qishloq maktablarida ko'zbo'yamachilik avj olgan, yuqoridan tekshiruv kelsa, maktab o'quvchilari uchun tayyorlov kurslari, repetitor va to'garaklar yo'lga qo'yilganligini aytishadi, ammo bulardan o'quvchilar bexabar yoki bular faqat qog'ozdagina mavjud.

Biz gender tengligi bor davlatda yashayapmiz, ya'ni o'g'il va qizlarning huquqlari teng, lekin bu qishloqlarda biroz o'zgacha tus olgan: o'qish faqat o'g'il bolalar uchun ekan? Qiz bola bir uyning bekasi bo'lsa kifoya emish, ammo, azizlar, qizlarning ham o'g'il bolalar qatori birdek o'qib bilim olishga, dunyo ko'rishga haqqi bordir. Bu narsalar, avvalo, ota-onalarga chuqur singdirilishi kerak.

Yana bir og'riqli nuqtalarimizdan biri maktab o'quvchilari o'rtasidagi erta turmush masalasi. Hali o'zi bola bo'lgan yosh qizlarimizni turmushga berishyapti. Natijada ilmga bo'lgan qiziqish susayib faqat maktabga davomat uchun borib kelishmoqda. Lekin undan hali xalqqa foydasi tegadigan biror mansabdor shaxs yoki o'quvchilarga ilm ulashib ularni ma'rifatga chorlovchi ustoz chiqishi mumkin. Erta turmush qurish masalasi bo'yicha yoshlar o'rtasida, balki ularning ota-onalari o'rtasida



ham tushunish ishlari olib borilmoqda. O'zlari tengi yoshlarning erishgan yutuqlari ko'rsatilib ularda o'qishga, shunday yutuqlarga erishishga qiziqish uyg'otilyapti.

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations)

Ta'lim-tarbiya insonning shakllanishida yetakchi o'rin egallaydi. Bugungi kunning zamon talabi ham mustaqil fikrlay oladigan, qo'lidagi kasb- kori , qobiliyati bilan xalqqa xizmat qila oladigan yoshlarni tarbiyalashdir. " Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir", - deydi buyuk bobokalonimiz ibn Sino. Ota-onalarimiz yoshlarning bo'sh qolishlariga yo'l qo'ymasligi kerak. Bo'sh vaqtlarida ular o'zlari yoqtirgan mashg'ulotlari bilan shug'ullansin. Shundagina biz ularni yaqinlashishi mumkin bo'lgan balolardan asrashimiz oson bo'ladi. Maqola yakunida shunday bir taklif kiritmoqchiman ularning bandligini ta'minlash uchun mahallalarda bir maskan tashkil etilsinki, u yoshlarning bo'sh vaqtini band etsin. Yoshlar ham qachon bo'sh vaqtim bo'lar ekan, o'sha yerga tezroq borsam edi degan xayollar sursin. U yerda ular o'zlari yoqtirgan qiziqarli qiziqarli mashg'ulot bilan shug'ullana olsin . Kimdir sport bilan, kimdir suzish, yana kimdir tikuvchilik bilan. Yana bu maskan hayriya aksiyalari, turli xil musobaqalar uyushtirsa, ishning davomiyligi uzoq muddatni qamrab oladi va natijasi samarali bo'ladi. Imning insoniyatga foydali jihatlari judayam ko'pdir. Masalan, siz biror bir loyihangiz uchun yaxshigina sarmoya ajratildi. Sarmoyani siz loyihani ishga tushirish uchun sarfladinigiz. Bir necha kishining bandligi ta'minlandi. Bu bilan siz loyihani ishga tushirib xalqqa manfaat keltiryapsiz, ham xalqimizning duosini olyapsiz. Keling, yoshlar! Xalqqa foydamiz tegadigan ilmi inson bo'lib yetishaylik, bizga bildirilgan ishonchni birgalashib oqlaylik!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulla Avloniy " Turkiy Guliston yoxud axloq" Toshkent " O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti 2004, 8-12- betlar
2. Axborot xati materiallari
3. Ergash G'oziyev " Umumiy psixologiya", " Universitet" nashriyoti 2002, 126- 136- bet
4. "Yosh davrlari psixologiyasi" o'quv materiallari
5. review.uz sayti
6. strategy.uz sayti
7. standart.uz sayti
8. S.X.Jalilova " Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya" Toshkent " Innovatsiya - Ziyo" nashriyoti 2020 , 131- bet
9. B.X.Xodjayev " Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" Toshkent " Sano- standart " nashriyoti 2017, 129- bet
10. R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Rahmonqulova " Pedagogika nazariyasi va tarixi" Toshkent " Fan va texnologiya" nashriyoti 2010, 415- bet